

**YANGI O‘ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA
HUQUQBUZARLIKKA QARSHI KURASH VA JAMOAT
XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH FAOLIYATI**

Valijonova Umida Foziljon qizi

Farg‘ona davlat Universiteti, Filologiya fakulteti.

O‘zga tilli guruhlarda rus tili yo‘nalishi talabasi

Valijonov Isomiddin Isroiljon o‘g‘li

Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi

3 otryad 211 guruh kursanti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jamoat xavfsizligiga va O‘zbekiston taraqqiyotiga kuchli ta’sir etayotgan korrupsiya masalasi haqida va unga qarshi kurashish, uni oldini olish bo‘yicha mulohaza yuritiladi.

***Kalit so‘zlar:** Poraxo‘rlik, kommunikatsiya, propiska, idoralararo komissiya, axloqiy korrupsiya, byurokratiya.*

В стратегии развития нового Узбекистана деятельность по борьбе с преступностью и обеспечению общественной безопасности.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается вопрос о коррупции, которая оказывает сильное влияние на общественную безопасность и развитие Узбекистана, и как с ней бороться и предотвращает.

***Ключевые слова:** Взятничество, коммуникация, прописка, межведомственная комиссия, моральная коррупция, бюрократия.*

Actions to combat crime and ensure public safety in the development strategy of New Uzbekistan.

ABSTRACT

This article discusses the issue of corruption, which has a strong impact on public security and the development of Uzbekistan, and how to fight against it and prevent it.

Key words: *Bribery, communication, bribery, interdepartmental commission, ethical corruption, bureaucracy.*

Jinoyatchilikka qarshi kurashish barcha davrlarda ham davlatning jiddiy va muhim masalasi hisoblanib kelingan. Shu o‘rinda yangi O‘zbekiston sharoitida huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish, jinoyatchilikni jilovlash, jamoat xavfsizligi, yurt tinchligini ta‘minlash eng ustuvor masalalaridan biri hisoblanadi.

Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida 26 yanvar kuni 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasidagi eng muhim vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Unda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla” yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturi tasdiqlandi.

Aytib o‘tishimiz joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026- yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son Farmonida ham jamoat xavfsizligini ta‘minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo‘lgan shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish asosiy maqsad sifatida alohida belgilangan.

Hozirgi kunda davlatimiz va xalqimizning taraqqiyotiga katta zarar yetkazayotgan omillardan biri bu- korrupsiyadir. Xalq tilida soddagina qilib - poraxo‘rlik, keng ma‘noda korrupsiya, deb ataluvchi hodisa barcha islohotlar ildiziga bolta urarkan, ushbu maqolada uni keltirib chiqaruvchi sabab va qarshi kurash choralarini tahlil etamiz. Ushbu illatning ildizlari bir necha ming yillarga borib taqalishi odamni chuqur mulohazaga toldiradi. Dastlab insonlar biror-bir mavqega ega bo‘lish

uchun qabila boshlig‘i yoki oqsoqolga sovg‘a-salomlar hadya qilganlar. Qimmatliroq sovg‘a bu odamni boshqalardan ajratib turgan va uning iltimosi yoki talabi so‘zsiz qondirilgan. Unga qarshi kurashgan ilk hukmdor sifatida eramizdan qariyb ikki yarim ming yil avval yashagan Shummer podshohi Uruinimgina nomi tilga olinadi. Qadim zamonlardayoq korrupsiyaga qarshi qattiq jazolar belgilanganiga qaramasdan, bu hamisha ham ko‘ngildagidek natijani bermagan. Nari borsa, eng xavfli jinoyatlarning oldi olingan, xolos. Biroq poraxo‘rlikka yo‘l qo‘yishlar va pora olishlar muntazam ravishda davom etavergan. Mazkur muammo bilan deyarli barcha qadimgi davlatlar va tuzumlar, hatto qadimgi Misr fir‘avnlari ham to‘qnash kelganlar. Inson borki, nafs bor, inson borki, xatoga yo‘l qo‘yadi. Nafs, manfaat tufayli insonlar nohaqdan nohaq hukmdoru sudyalarning adolatsiz xukmlari jabrini chekkan. Bejiz ilohiy kitoblar sanalmish Injil va Qur‘oni karimda o‘zgalar mol-mulkini nohaq o‘zlashtirmaslik yoki qozilarga pora berish evaziga boshqalar mol-mulkini egallab olmaslik xususida oyatlar nozil bo‘lmagan.

“Mol va (boylik)laringizni o‘rtalaringizda botil (yo‘llar) bilan yemangiz! Shuningdek, bila turib odamlarning haqlaridan bir qismini gunoh yo‘li bilan yeyish(o‘zlashtirish) maqsadida uni hokimlarga havola etmangiz! (Qur‘oni karim, “Baqara” surasi, 188-oyat).

Ko‘pincha insonlarni bir savol qiziqtiradi “Korrupsiyaning kelib chiqish ildizi qayerda?” Uning kelib chiqish sabablarini aniqlash, korrupsiyaga qarshi kurashning samarali yo‘llarini topish bo‘yicha mutaxassislar, turli institutlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan yuzlab, minglab tadqiqotlar o‘tkazilgan. O‘ziga xos reytinglar tuzilib, har xil ko‘rsatkich va raqamlar qayd etilgan jadvallar yaratilgan. Hatto korrupsiyaning xilma-xil ko‘rinishidagi formulalari ham ishlab chiqilgan. Hanuzgacha, barcha millatlar uchun qo‘l keladigan qarshi kurashda asqotadigan yagona yechim yo‘q. Gap shundaki, korrupsiyaning asl ildizi uning paydo bo‘lish geografiyasi bilan o‘zgaradi.

Korrupsiya darajasini susaytirish borasidagi takliflarni quyida batafsil mushohada etamiz, lekin, ayni chog‘da uni keltirib chiqaruvchi yana bir omilga e‘tibor qaratsak: korrupsiyani keltirib chiqaruvchi sun‘iy to‘siqlar. Sun‘iy to‘siq, deb atalmish jihatlar

shundan iboratki, ularning barchasini siyosiy iroda kuchi bilan yo‘q qilish mumkin. Ular nimalar? Ushbu maqolamning boshida aytib o‘tganidek, davlat organlari xodimlarini ishga qabul qilishda yuz berishi «belgilangan mantiqsizlik» va shaffoflikning yo‘qligidir. Gap shundaki, inson kapitalining haqiqiy qiymatini o‘zbek modelidagi «obektivka» orqali aniqlash mumkin emas. Bo‘lg‘usi kadrning salohiyatini tekshirish, uning psixologik va jismoniy yetukligi o‘rniga «Toshkent propiskasi», «yaqin qarindoshining sudlanganligi» kabi foydasiz vajlar har qanday bilimli kishini rasmiy doiradan uzoqroq yurishga undaydi. Agar tajribali va bilimli mutaxassis davlat organida ishlash istagi bilan murojaat qilsa, unga beriladigan ilk topshiriq ham bir talay hujjatlarni yig‘ib kelish bo‘ladi. O‘z o‘rnida har bir ma‘lumotnomani olish kichik korrupsiyaga sabab bo‘lishi mumkin. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, poraxo‘rlik ayni paytga kelib nihoyatda tahdidli ko‘lam va miqyoslarni kasb etmoqda. U ayniqsa, iqtisodiy jinoyatlar orasida yetakchi o‘rinni tutadi. Korrupsiyaning insonlarga va umuman, jamiyatga yetkazadigan zarari juda katta.

Yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurash yuzasidan qanday ishlar olib borilayotgani xususida so‘z yuritadigan bo‘lsak, o‘tgan yillar mobaynida poraxo‘rlik, mansab vakolatini suiiste‘mol qilish kabi holatlar bo‘yicha qonunchilikda turli jazolar belgilangan. Shunga qaramasdan, bizda bevosita korrupsiyaga oid qonun yo‘q edi.

2016 yil 24 noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinib, u 13 dekabrda Oliy Majlis Senati tomonidan ma‘qullandi. Ushbu qonun mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishda muhim dasturilamal bo‘ladi, deb ayta olamiz.

6 ta bob 34 moddadan iborat ushbu qonunning 3-moddasida korrupsiyaga quyidagicha muxtasar ta‘rif beriladi: “Korrupsiya — shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish”

Qonunning 4-moddasida korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy tamoyillari bayon etilgan. Xususan, unda qonuniylik, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy

manfaatlarining ustuvorligi, ochiqlik va shaffoflik, tizimlilik, davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi, javobgarlikning muqarrarligi bayon etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning „Korrupsiya va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish, shuningdek, huquqbuzarliklarni oldini olish masalalarini samarali yechish ustuvor vazifalarimizdan biri bo‘lib qoladi“ degan so‘zlarini o‘zidayoq korrupsiya degan illatni tomiri qurib borayotganligidan dalolat beradi.

Men ushbu maqolada dunyoda ildiz otgan yana bir salbiy illat — korrupsiyaning ayrim jihatlari xususida so‘z yuritdim. Ayni kunda mamlakatimiz Bosh prokuraturasi, sud-huquq idoralari va boshqa tashkilotlar bir yoqadan bosh chiqarib korrupsiyaga qarshi kurash olib borayotganini ta’kidlagan holda, bu sa’y-harakatlar yaqin yillarda o‘z samarasini beradi, deb o‘ylayman.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar ana shu hodisa yashab turgan jamiyat yaratgan tizimning nosog‘lom yashashida namoyon bo‘ladi. Shu o‘rinda alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, ommaviy axborot vositalarining korrupsiyaga qarshi kurashdagi asosiy vazifasi ijtimoiy kayfiyatni yoritish: cho‘qqining o‘tkir nuqtasiga yetib kelganimizni eslatib turishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. *O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi.*

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi”.1995- yil,1-son.

2. *Isroilov B.I.; Gadoyev E.F. Korrupsiya va unga qarshi kurashishga oid atamalar hamda iboralar izohli lug‘ati. Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti, 2019.-168-bet.*

3. *O‘zbekiston Respublikasining 2017- yil 30-yanvarda qabul qilingan O‘RQ- 419-sonli “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni. “O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami” 2017-yil 9-yanvar, 1- son, 2- modda.*